



## **TIBBIYOT TA'LIMI SIFATINI OSHIRISH UCHUN PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.**

(Важность использования педагогических технологий для повышения  
качества медицинского образования)

(The importance of using pedagogical technologies to improve the quality of  
medical education)

***Mamliyeva Shahlo Maxsudovna***

*(1-Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatlik texnikumi  
Xirurgiya Reanimatsiya kafedrası o`qituvchisi)*

***Sadullayeva Dilfuza Murodullayeva***

*(1-Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatlik texnikumi  
2-Umumkasbiy fanlar kafedrası o`qituvchisi)*

***Murodova Dilnoza Abdullo qizi***

*(1-Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatlik texnikumi  
Oftalmologiya fan o`qituvchisi)*

***Berdimurodova Ma'mura Axmad qizi***

*(1-Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatlik texnikumi  
Jamoada hamshiralik ishi kafedrası o`qituvchisi)*

**ANNOTATSIYA.** Dunyoda ta'lim tizimida ro'y berayotgan ta'limning internatsionallashuvi, talabalarning xalqaro mobilligi, ta'lim dasturining tez o'zgaruvchanligi kabi global tendensiyalar qatoriga ta'lim sifatini ta'minlash masalasi alohida ahamiyat kasb etib bormoqda. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar hamda bo'lajak mutaxassislarning ma'naviy-axloqiy, intellektual va kasbiy salohiyatiga nisbatan qo'yilayotgan yuqori talablar ta'lim muassasalari oldiga xalqaro talablarga javob bera oladigan sifatli kadrlar tayyorlash vazifasini qo'ymoqda. Bu vazifalarni bajarish yo'lida esa ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish talab etiladi.

**KALIT SO'ZLAR.** Sifatli ta'lim, pedagogika, texnologiya, global, intellektual, kadrlar.

**АННОТАЦИЯ.** Среди глобальных тенденций, таких как интернационализация образования, международная мобильность студентов, быстрая смена образовательной программы, вопрос обеспечения качества образования приобретает особое значение. Современные социально-экономические условия и высокие требования, предъявляемые к духовно-



этическому, интеллектуальному и профессиональному потенциалу будущих специалистов, ставят перед образовательными учреждениями задачу подготовки качественных кадров, отвечающих международным требованиям. Для решения этих задач необходимо использовать инновационные педагогические технологии в образовании.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА.** Качественное образование, педагогика, технологии, глобальные, интеллектуальные, кадровые.

**ANNOTATION.** Among the global trends such as the internationalization of education, the international mobility of students, the rapid change of the educational program, the issue of ensuring the quality of education is gaining special importance. Modern socio-economic conditions and the high demands placed on the spiritual-ethical, intellectual and professional potential of future specialists put the task of training quality personnel who can meet international requirements before educational institutions. In order to fulfill these tasks, it is necessary to use innovative pedagogical technologies in education.

**KEY WORDS.** Quality education, pedagogy, technology, global, intellectual, personnel.

Dunyo tezkor sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan zamonaviy ta'limdagi ta'lim standartlari ma'lum ma'noda o'zgartirish ta'lim sifatini ko'tarish, ta'lim jarayonlarining samaradorligini oshirish maqsadini ko'zlasa-da, zamonaviy Oliy ta'lim muassasasidan tez o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish, ta'lim jarayoniga qo'yiladigan yangi talablarga javob berish uchun kuchli sa'y-harakatlarni talab qiladi. Oliy ta'limining kelajagi, zamonaviy tipdagi mutaxassisni tayyorlash ham o'qituvchi, ham talabalarining faolligi va mas'uliyatini oshirishni nazarda tutadi. Shu bilan bir qatorda, pragmatik ma'noning ba'zi o'rnatilgan modellari va tushunchalari o'z qiymatini yo'qotadi. Bu o'rinda aksariyat oliygohlar kuchayib borayotgan innovatsion sa'y harakatlar bilan talabalarni ular uchun yangi imkoniyatlar ochadigan muayyan ta'lim jarayoniga jalb qila oladigan barqaror modellarni qayta kashf qilish va yaratish vazifasini ham zimmasiga olishi darkor. Axborot texnologiyalaridagi inqilobiy siljishlar zamonaviy ta'lim sifatini oshirishning asosi bo'lgan yangi ta'lim muhitini shakllantirish jarayonida o'qituvchilarning multimedia vositalaridan faol foydalanishining ahamiyatini tabiiy ravishda oshiradi. Talabalar interaktiv texnologiyalar yordamida nafaqat vizual idrok etish orqali ma'ruza, seminar mashg'ulotlari materialini yuqori darajada o'rganish, balki pirovardida katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash, axborot madaniyatini rivojlantirish



imkoniyatiga ham ega bo'ladilar. Ayni shu o'rinda Oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilarning ko'pgina qismi ma'ruza va seminar kursini tashkil etish jarayonlarida o'z pedagogik faoliyatida texnik vositalar va innovatsion kompyuter texnologiyalaridan foydalanishlarini alohida eslab o'tish joiz. Texnik vositalar va innovatsion kompyuter texnologiyalaridan foydalanmaydigan o'qituvchilar deyarli bugun ta'lim tizimida mavjud emas. Negaki, zamonaviy axborot texnologiyalari hozirgi vaqtda barcha bilim beruvchi soha vakillarining dars jarayonlarni mazmunli, kam-ko'stsiz tashkil etish uchun foydalanadigan vositasiga aylanib ulgurdi. Talabalar va o'qituvchilarning innovatsion kompyuter o'qitish texnologiyalarining ma'ruza va seminar materialini o'zlashtirish jarayoniga ta'siri haqidagi fikrlarini ham o'rganish axborot texnologiyalarini dars mashg'ulotlarida qo'llash uchun yaxshi yangiliklarni yaratishda xizmat qiladi. Deyarli har ikkitadan bitta o'qituvchi va talaba kompyuter texnologiyalaridan foydalanish materialni idrok etish va o'zlashtirishni sezilarli darajada osonlashtiradi, deb hisoblaydi. Shu bilan birga, o'qituvchi va talabalarning qariyb yarmidan ko'p qismi innovatsiyalardan, innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta'lim jarayonini qisman osonlashtiradi, deb sanaydi. Bugungi tezkor sur'atlar bilan taraqqiy etib borayotgan zamonaviy ta'lim muhitining faol ishtirokchilari — ko'pchilik o'qituvchilar tomonidan qo'llaniladigan eng keng tarqalgan texnik vositalar multimedia taqdimot tizimlaridir. Agarki, professor va o'qituvchilar o'rtasida aynan shu masala yuzasidan so'rovnomaga yoki shunga o'xshash amaliy jarayon o'tkazilsa, shubhasiz, ularning juda ko'pchiligi ma'ruza va seminar kurslarini tashkil etishda multimediadan tez-tez foydalanishlarini ta'kidlashlari aniq. Innovatsion o'qitish usullari (asosan tushuntirish materiallari ko'rsatilgan taqdimotlar) ko'pincha ma'ruzachilarning dars jarayonlarini tashkil qilishda faol ekanligini aytish kerak. Professorlar orasida taxminan yarmi ushbu turdagi taqdimotlardan foydalanadi, dotsentlar orasida — mutlaq ko'pchilik.

Dars jarayonlariga mas'ul o'qituvchi tomonidan innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan dars tashkil qilinar ekan, turli texnik vositalaridan — kompyuter, proyektor, elektron xattaxta va shu kabilardan unumli foydalanish va interaktiv metodlarni ham ko'proq dars jarayonlarida tadbiiq etish ham ta'lim jarayonining samarasi uchun xizmat qiladi. Ta'limda innovatsion pedagoik texnologiyalar va interaktiv metodlardan to'g'ri foydalanishni bilgan har qaysi toifadagi o'qituvchining faoliyatida ularning foydalanish amaliyoti soni ko'p bo'lsa, dars mashg'ulotlarining mazmunining oshishini ham shunchalik ko'p kuzatish mumkindir. Bundan tashqari, har bir o'qituvchi ta'limda individual ravishda yangilik



kiritishi ham mumkin. O‘zi mas’ul bo‘lgan fanning mazmunmohiyati, mavzulari, shu sohadagi yaratilgan ilm-fanning ilg‘or yutuqlari va innovatsiyalari to‘g‘risida nazariy va amaliy ma’lumotlarni o‘rganib, ularni jamlagan holda, o‘qitish jarayonlarida o‘rinli qo‘llay olishi, ta’limda yangi metodlarni yaratishi hamda aynan shular asosida dars jarayonlarini tashkil qilmog‘i ham darsning mazmunini boyitilishida xizmat qiladi, deyish mumkin.

Yuqori o‘rinlarda bildirilgan fikr-mulohazalarga xulosa sifatida aytilish mumkinki, ta’lim jarayonlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishdan asosiy ko‘zlangan maqsad o‘qituvchi va talaba mushtarakligiga erishish, talablar ahlini fanga bo‘lgan qiziqishlarini yanada kuchaytirish, ta’limga ularning munosabatlarini o‘zgartirish, talabalarda o‘rganilgan va to‘plangan bilimlarni ijtimoiy shart-sharoitlarda darkoriy holatlarda o‘rinli qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantirish, axborot kommunikatsion texnologiyalar va didaktik materiallarni fanning har qaysi mavzu bilan uyg‘unlashtirish singarilardir. Yana lohida ta’kidlash kerakki, innovatsion pedagogik texnologiyalar kelajakda ham mehnat bozorida talab mavjud bo‘ladigan zamonaviy mutaxassis-kadrlarni yetishtirib berishda ta’lim jarayonlarida ahamiyatlidir. Agarda innovatsion texnologiyalarni ta’lim taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuch sifatida qaralsa, ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish shak-shubhasiz samara uchungina xizmat qiladi. Har bir jamiyatning kelajagi, uning ajralmas bo‘lagi va hayotiy zarurati hisoblanmish ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligini bugunda ta’lim jarayonlarida ilg‘or foydalanish kuchiga ega innovatsion pedagogik texnologiyalarning nafaqat rivojlanishi, balki joriy qilinishi bilan ham belgilanadi. Mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanlab, bu yo‘ldan ildam qadamlayotgan respublika uchun uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish, uni yanada takomillashtirish, yangidan-yangi sifat bosqichlariga olib chiqish, unga eng faol va «iste’molda» bo‘lgan innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda joiz bo‘lsa, ta’lim samaradorligini davlat siyosati darajasiga olib chiqish, ta’limda yuqori saviyadagi sifatga, ko‘rsatkichga erishish uchun zamin bo‘ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PF-5264 son “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Gushchin Yu.V. Oliy ta’limda interfaol o‘qitish usullari // "Dubna" Xalqaro tabiat, jamiyat va inson universitetining psixologik jurnali, 2012. - No 2. - B. 1-18.



3. Jalilova D.U. Psychological And Technological Features of Increasing the Efficiency of Educational Activity of Talented Students in Presidential Schools. Journal of Pedagogical Inventions and Practices ISSN NO: 2770-2367 (<https://zienjournals.com>).

4. Popenici S. Towards a new vision for university governance, pedagogies and student engagement // The student engagement handbook: practice in higher education / Ed. by E. Dunne, D. Owen. 2013. P. 35.

5. ДеКорте Э. Инновационные перспективы обучения и преподавания в сфере высшего образования в XXI в. // Вопросы образования. 2014.